# OLDI-SOTDI ShARTNOMASI
## (Gilam sotish bo'yicha)

22«11»2022 yil. **114-3-46-IB/2022-son**

Keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb ataladigan "**AAJ CARPET 55555**" ma'suliyati cheklangan jamiyati nomidan jamiyat Nizomi asosida A.Azimov orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb ataladigan Sharof Rashidov tuman irrigattsiya bo'limi Nizomi asosida faoliyat yurituvchi boshliq **L.K.Maxmudov** ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. Shartnomada tovar deb nomlanuvchi "AAJ CARPET 55555" ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan sifatli (palas) gilam tovarini yetkazib berish.

1.2. Tovarning kafolat muddati 3 (uch) yil. Kafolat muddati tovar sotib oluvchiga topshirilgan paytdan, tovar almashtirilganda esa yangidan o'ta boshlaydi.

1.3. 83.3 dona (palas) gilam yetkazib beriladi, har bir (palas) gilamning narxi 120 000 (bir yuz yigirma ming), jami 9 996 000 (to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson olti ming) so'm.

1.4. Agar tovardan foydalanilmagan, uning iste'mol xususiyatlari saqlangan bo'lsa va sotuvchidan sotib olinganining isboti bo'lsa, sotib oluvchining tovarni almashtirish yoki qaytarib olish haqidagi talabi qanoatlantiriladi.

1.5. Sotib oluvchi o'ziga tovar topshirilgan paytdan boshlab o'n kun mobaynida xarid qilingan tegishli sifatli tovarni xarid joyida o'lchami, shakli, hajmi, andozasi, rangi, to'plami boshqacha bo'lgan xuddi shunday tovarga almashtirishi mumkin. Bunda u narxlarda farq bo'lgan taqdirda sotuvchi bilan zarur hisob-kitobni amalga oshiradi. Agarda sotuvchida almashtirish uchun zarur tovar bo'lmaganida sotib oluvchi xarid qilingan tovarni sotuvchiga qaytarib berish va unga to'langan pul summasini olish huquqiga ega.

1.6. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ularning har biri bir xil kuchga ega.

**2. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari**

2.1. Sotuvchining huquqlari:
- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

2.2. Sotuvchining majburiyatlari:
- sotib oluvchi talab qilgan hollarda tovar to'g'risida unga zarur va to'g'ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo'yiladigan talablarga muvofiq holda berish;
- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- tovarni shartnomada ko'rsatilgan assortimentda topshirish;
- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan but tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

2.3. Sotib oluvchining huquqlari:

- tovar to'g'risida zarur va to'g'ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo'yiladigan talablarga muvofiq holda berishni;

- shartnoma tuzilgunga qadar tovarni ko'zdan kechirish, o'z oldida tovarning xossalarini tekshirishni yoki tovardan qanday foydalanishni ko'rsatishni;

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;

- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;

- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;

- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni;

- tovarni shartnomada ko'rsatilgan assortimentda topshirishni;

- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirishni talab qilish.

2.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;

- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;

- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;

- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash;

- sotuvchi tomonidan tovarni saqlash uchun qilingan zarur harajatlarni to'lash.

- sotib oluvchi, sotuvchiga shartnoma qiymatining 30 % foiz miqdoridagi bunak tulovlarini shartnoma tuman g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng amalga oshiradi.

- gilam(palas) tovarni to'liq yetkazib berilganidan so'ng tulovning qolgan 70(etmish) foizi uzil-kesil hisob-kitob o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

## 3. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

3.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol tovar to'g'risidagi axborotni olish imkoni berilmagan yoxud uning tovarni ko'zdan kechirish, tovarning xossalarini tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarda paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

3.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 3.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtda sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

3.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

3.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, assortimenti, sifati, butligi, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun qonunchilikda belgilangan miqdorida penya to'laydi.

## 4. Fors-major holatlar

4.1. Sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch ta'siri: elektr o'chishi natijasida yuzaga keladigan kuyish, tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, yong'in chiqishi, suv tegishi natijasida buzilishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

## 5.Korrupsiyaga qarshi kelishuv.

5.1.Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, ya'ni ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim.Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

5.2.Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darxol yozma ravishda(elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni(78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi.Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatda oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuqiqiga ega va murojaatini olgan tomon 10(o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berish yoki o'z fikirini bildirishi mumkin.

5.3.Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplanishi talab qilinishiga xaqli emas.

## 6. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

6.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

**7.Taraflarning manzillari va bank rekvizitlari.**

| | |
|---|---|
| **Sotuvchi: "AAJ CARPET 55555" MChJ**<br>**STIR: 309 309 381**<br>**OKONX**<br>**Yuridik manzili: Jizzax shaxar Xalqobod maxallasi, G'uncha ko'chasi 2 uy**<br>**Telefon/faks 99 555 55 54**<br>**Hisob-kitob hisobvarag'i: 20208000105495542001**<br>**Banki: "Trastbank" Jizzax filiali.**<br>**MFO 01166**<br><br>**Raxbar:_____________A.Azimov** | **Sotib oluvchi: Sharof.Rashidov TIB**<br>**STIR: 305 082 274**<br>**OKONX 1613**<br>**Yuridik manzili: Sharof Rashidov tumani Uch tepa MFY, Uch tepa daxasi**<br>**Telefon/faks 99 566 60 23**<br>**Hisob-kitob hisobvarag'i: 10002286008212704240217000002**<br>**Banki: Markaziy bank BBB Toshkent shaxri.**<br>**MFO 00014** |

| | | |
|---|---|---|
| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | LAPAS MAXMUDOV KULDASHEVICH |
| | Imzolangan sana | 22.11.2022 11:37 |
| | Hujjat kodi | **WQ0166466244** |
| | Hulosa kodi | **SU3067432262** |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

SU3067432262

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Oldi-sotdi shartnomasi.**

"AAJ CARPET 55555" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan sifatli (palas) gilam tovarini yetkazib berish.
Shartnoma bo'yicha 83.3 dona (palas) gilam yetkazib beriladi, har bir (palas) gilamning narxi 120 000 (bir yuz yigirma ming), jami 9 996 000 (to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson olti ming) so'm.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Sh.Rashidov tuman irrigasiya bo'limi tomonidan 21.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Sharof Rashidov tumani yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

A.S.MUXTAROV

22.11.2022

# Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 175176 на приобретение Гилам харид килиш учун

Способ проведения электронный

Дата 14.11.2022

Время рассмотрения 14.11.2022 13:02

Закупочная комиссия SH.Rashidov tuman Irrigatsiya bolimi, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAXMUDOV LAPAS KULDASHEVICH | Boshliq | SH.Rashidov TIB |
| **Секретарь комиссии** | DAVUROV FARXOD IMAMKULOVICH | Таъмирлашни ташкил қилиш шўъбаси ходими | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | BOYBEKOV ABDURASHIT ABDURAZAQOVICH | Бош хисобчи | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | ESIRGAPOV RAIMQUL XAZRATQULOVICH | Бошлиқ ўринбосари | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | NORBUTAYEV SUVANKUL ISMAILOVICH | Бош гидротехник | Ш.Рашидов ТИБ |
| **Член комиссии** | KODIRKULOV G'ULOM ABDIMANNON O'G'LI | Бош гидрометр | Ш.Рашидов ТИБ |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 14.11.2022 года № лота 175176.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| Наименование товара (работы, услуги) | Ковер |
|---|---|
| Подробное описание | Сифатли гилам |
| Количество товара | 83.30 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 120 000.00 |
| Стартовая сумма | 9 996 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танловда иштирок этадиган корхонанинг солик ва бошка идоралардан карздорлиги йуклиги тугрисида малумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Онлайн солик малумоти

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **УЧ-ТЕПА САХОВАТИ** | 30 | Такдим | 20 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **МАХ.САВ.ФИРМА** | | килинади | | | | |
| **AAJ CARPET 5555 MCHJ** | 30 | Малумот такдим етилди | 30 | Экспертная | | |

Критерий №2 Коррупция холатларига йул куймаслик учун кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Кафолат хати

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **УЧ-ТЕПА САХОВАТИ МАХ.САВ.ФИРМА** | 30 | Такдим килинади | 20 | Экспертная | | |
| **AAJ CARPET 5555 MCHJ** | 30 | Малумот такдим етилди | 30 | Экспертная | | |

Критерий №3 Махсулотнинг сифат сертификати талаб килинади

Тип: Текстовое значение

Описание: Сертификат

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **УЧ-ТЕПА САХОВАТИ МАХ.САВ.ФИРМА** | 40 | Такдим килинади | 20 | Экспертная | | |
| **AAJ CARPET 5555 MCHJ** | 40 | Малумот такдим етилди | 20 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **УЧ-ТЕПА САХОВАТИ МАХ.САВ.ФИРМА** | 9 996 000.00 | 9 996 000.00 UZS | 9 996 000.00 | 00.00 | 9 996 000.00 | 14.11.2022 12:12:45 | 10 |
| **AAJ CARPET 5555 MCHJ** | 9 996 000.00 | 9 996 000.00 UZS | 9 996 000.00 | 00.00 | 9 996 000.00 | 14.11.2022 12:31:01 | 10 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по | Общий балл по | Итоговый |
|---|---|---|---|

| | технической части | финансовой части | балл |
|---|---|---|---|
| **УЧ-ТЕПА САХОВАТИ МАХ.САВ.ФИРМА** | 54 | 10 | 64 |
| **AAJ CARPET 5555 MCHJ** | 72 | 10 | 82 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 175176 от 14.11.2022 года на приобретение Гилам харид килиш учун определила победителем:

AAJ CARPET 5555 MCHJ
309309381

и резервный исполнитель: УЧ-ТЕПА САХОВАТИ МАХ.САВ.ФИРМА (205965372)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MAXMUDOV LAPAS KULDASHEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | BOYBEKOV ABDURASHIT ABDURAZAQOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ESIRGAPOV RAIMQUL XAZRATQULOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | NORBUTAYEV SUVANKUL ISMAILOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | KODIRKULOV G'ULOM ABDIMANNON O'G'LI | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП